



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




No9(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 38 sahifa,
2-sentyabr, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'smirlarda hissiy bezovtalikning psixologik determinantlari sifatida o'z-o'zini baholash va o'ziga munosabat xususiyatlari.....	10
Ibraymova Altinay Esemuratovna	
Bo'lajak pedagoglar shaxsiyatida ksenofobiya xavfi: kasbiy deformatsiya omillari va uning pedagogik faoliyatga ta'siri	16
Abdiraximova Dildora Begimkulovna	
Biologiya ta'limida sun'iy intellektdan foydalanish: didaktik imkoniyatlar, muammolar va metodik yechimlar	20
Raxmatov Uchkun Ergashevich	
Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik.....	28
Adizova Muxabbat Muxitdinovna	
Oliy ta'lim rahbar-kadrlarida stressogen vaziyatlarni boshqarishning pedagogik-psixologik o'ziga xos jihatlari	32
Sultonov Mansur G'aniyevich	

TALABALARDA MEDIASAVODXONLIK VA TANQIDIY FIKRLASH O'RTASIDAGI PSIXOLOGIK BOG'LIQLIK

Adizova Muxabbat Muxitdinovna

Buxoro xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

<https://orcid.org/0009-0003-1055-4657>

Annotatsiya: Maqolada talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Raqamli axborot muhiti sharoitida talabaning mediaxabarlarni qabul qilishi, mazmunan tushunishi, ularning ishonchligini baholashi, fakt va talqinni farqlashi, qarama-qarshi ma'lumotlarni o'zaro solishtirishi hamda mustaqil xulosa chiqarishi tanqidiy fikrlash jarayonlari bilan uzviy bog'liq ekanligi yoritiladi. Mediasavodxonlikning yuqori darajasi shaxsda axborotning tashqi ko'rinishi yoki ommaviyligiga emas, balki uning daliliy asosi, manbasi va mantiqiy izchilligiga tayanib baho berish qobiliyatining shakllanishi bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash, talaba, mediaaxborot, kognitiv tahlil, psixosemantik talqin, refleksiya, kognitiv moslashuvchanlik, axborotni baholash, raqamli muhit.

Abstract: The article provides a theoretical analysis of the psychological relationship between media literacy and critical thinking among students. It highlights that, in the digital information environment, students' perception of media messages, comprehension of their content, assessment of their credibility, distinction between facts and interpretations, comparison of conflicting information, and formulation of independent conclusions are closely interconnected with critical thinking processes. A high level of media literacy is explained by the development of an individual's ability to evaluate information not on the basis of its external appeal or popularity, but according to its evidence base, source reliability, and logical consistency.

Key words: media literacy, critical thinking, student, media information, cognitive analysis, psychosemantic interpretation, reflection, cognitive flexibility, information evaluation, digital environment.

Аннотация: В статье теоретически анализируется психологическая взаимосвязь между медиаграмотностью и критическим мышлением студентов. Раскрывается, что в условиях цифровой информационной среды восприятие студентами медиасообщений, понимание их содержания, оценка достоверности, разграничение фактов и интерпретаций, сопоставление противоречивой информации и формирование самостоятельных выводов неразрывно связаны с процессами критического мышления. Высокий уровень медиаграмотности объясняется формированием у личности способности оценивать информацию не на основе её внешней привлекательности или массовой распространённости, а с учётом её доказательной базы, надёжности источника и логической последовательности.

Ключевые слова: медиаграмотность, критическое мышление, студент, медиаинформация, когнитивный анализ, психосемантическая интерпретация, рефлексия, когнитивная гибкость, оценка информации, цифровая среда.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi axborotni yaratish, tarqatish va iste'mol qilish jarayonlarini tubdan o'zgartirdi. Internet, ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, elektron ommaviy axborot vositalari hamda sun'iy intellektga asoslangan platformalar talabalarning kundalik axborot muhitining ajralmas qismiga aylandi. Natijada talaba nafaqat axborotni qabul qiluvchi, balki uni tanlaydigan, sharhlaydigan, baholaydigan va boshqalarga tarqatadigan faol media subyekti sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday sharoitda axborot hajmining ortishi bilan bir qatorda, uning ishonchligini aniqlash, manipulyativ mazmunni anglash, fakt va subyektiv talqinni farqlash kabi ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyoj ham kuchaymoqda.

Raqamli axborot makonining murakkablashuvi mediasavodxonlikni zamonaviy talaba shaxsining muhim kompetensiyalaridan biriga aylantirmoqda. Mediasavodxonlik mediaxabarlarni shunchaki qabul qilish yoki texnik vositalardan foydalanish qobiliyatini emas, balki axborotni izlash, tanlash, tushunish, tahlil qilish, manbalarning



ishonchliligini tekshirish va mazmunga ongli munosabat bildirishni ham qamrab oladi. Shu ma'noda mediasavodxonlik kognitiv, refleksiv va baholash jarayonlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mediasavodxonlikning psixologik mexanizmlarini tanqidiy fikrlashdan ajratilgan holda o'rganish mumkin emas. Tanqidiy fikrlash shaxsning mavjud axborotni dalillar asosida tahlil qilishi, turli nuqtayi nazarlarni solishtirishi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlashi, mantiqiy qarama-qarshiliklarni ko'ra olishi hamda asoslangan mustaqil xulosa chiqarishini ta'minlaydi. Talaba mediaaxborot bilan ishlash jarayonida aynan ushbu kognitiv amallar orqali xabarining mazmuni, maqsadi, manbasi va ishonchliligini baholaydi. Demak, mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi bog'liqlik axborotni idrok etishdan boshlab yakuniy xulosa chiqarishgacha bo'lgan kognitiv jarayonlarda namoyon bo'ladi.

Mazkur masalaning yana bir muhim jihati shundaki, raqamli muhitda axborotning inson tomonidan qabul qilinishiga faqat uning obyektiv mazmuni emas, balki shaxsning avvalgi tajribasi, qadriyatlari, ustanovkalari, hissiy holati va mavjud bilimlari ham ta'sir ko'rsatadi. Natijada bir xil mediaxabar turli talabalar tomonidan turlicha talqin qilinishi mumkin. Tasdiqlashga moyillik, stereotiplar, emotsional ta'sirchanlik va boshqa kognitiv og'ishlar axborotni obyektiv baholashga to'sqinlik qilishi ehtimoli mavjud. Shu sababli rivojlangan tanqidiy fikrlash shaxsga nafaqat tashqi axborotni, balki o'zining unga nisbatan shakllangan munosabati va fikrlash jarayonini ham refleksiv nazorat qilish imkonini beradi.

Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlashning o'zaro aloqadorligini o'rganishda refleksiya va kognitiv moslashuvchanlik ham muhim psixologik omillar hisoblanadi. Refleksiya talabaning o'z fikrlash jarayonlarini anglash va qayta baholashga yordam bersa, kognitiv moslashuvchanlik muqobil qarashlarni qabul qilish, yangi dalillar asosida avvalgi xulosalarni qayta ko'rib chiqish va qarama-qarshi axborotlar orasida asoslangan pozitsiyani shakllantirish imkonini beradi. Mazkur xususiyatlar mediaaxborotni tanqidiy tahlil qilishning psixologik asosini tashkil etadi.

Oliy ta'lim tizimida mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlashni o'zaro bog'liq holda rivojlantirish talabalarning nafaqat akademik faoliyati, balki kelajakdagi kasbiy va ijtimoiy hayoti uchun ham muhimdir. Mediaxabarlarni qiyosiy tahlil qilish, birlamchi manbalarni tekshirish, fakt va fikrni farqlash, dalillarning ishonchliligini baholash hamda manipulyativ kommunikatsiya usullarini aniqlashga yo'naltirilgan pedagogik topshiriqlar talabalarning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy talabaning kundalik faoliyati axborot oqimidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi. Oliy ta'lim jarayonida foydalaniladigan ilmiy va o'quv manbalaridan tashqari, talabalar ijtimoiy tarmoqlar, messengerlar, bloglar, videoplatformalar, elektron nashrlar va turli raqamli hamjamiyatlardan muntazam ravishda axborot oladi. Bunday muhit axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytirgan bo'lsa-da, uning ishonchliligini aniqlash, turli mazmundagi xabarlarni farqlash va muhim ma'lumotni ikkilamchi axborotdan ajratish bilan bog'liq yangi psixologik vazifalarni ham yuzaga keltirdi. Shu sababli talabaning ko'p axborot olishi uning axborot bilan samarali ishlay olishini anglatmaydi. Mediasavodxonlikning mohiyati aynan mana shu farqda namoyon bo'ladi. Mediasavodxon talaba nafaqat axborotni topishi va undan foydalanishi, balki u qanday yaratilganini, qaysi maqsadda taqdim etilayotganini, manbasi qay darajada ishonchli ekanini va uning mazmunida qanday dalillar mavjudligini baholashi kerak. Bu jarayon esa tanqidiy fikrlashsiz to'liq amalga oshmaydi. Tanqidiy fikrlash shaxsning mavjud ma'lumotlarni tahlil qilishi, asoslangan va asossiz xulosalarni farqlashi, muqobil fikrlarni ko'rib chiqishi hamda qaror qabul qilishda dalillarga tayanishini ta'minlaydi.

Shu jihatdan mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlashni alohida-alohida psixologik sifatlar sifatida qarashdan ko'ra, ularning o'zaro ta'sirini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Chunki mediaaxborotni tanqidiy tahlil qilmasdan mediasavodxonlikning yuqori darajasiga erishish qiyin bo'lsa, raqamli axborot bilan muntazam va ongli ishlashning o'zi ham tanqidiy fikrlashning rivojlanishiga sharoit yaratishi mumkin. Zamonaviy universitet talabalari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ham ijtimoiy tarmoqlarda manbalarni baholash, metakognitsiya, o'zini boshqarish va tanqidiy fikrlash o'rtasida mazmunli bog'liqlik qayd etilgan.

Media muhitida axborotning ishonchliligini baholash ayniqsa murakkabdir, chunki xabarlar ko'pincha qisqa, emotsional va tezkor shaklda tarqaladi. Biror voqea haqida berilgan sarlavha to'liq matndan keskinroq bo'lishi, tasvir esa mazmundan ko'ra kuchliroq hissiy reaksiya uyg'otishi mumkin. Shu sababli talabaning mediaxabar bilan ishlashida dastlabki emotsional taassurotdan keyin kognitiv tahlilni ishga tushira olishi muhim hisoblanadi. Tanqidiy fikrlashning shakllanganligi aynan shu jarayonda namoyon bo'ladi: talaba "bu xabar menga qanday ta'sir qildi?" degan savoldan tashqari, "u qaysi dalillarga tayangan?" degan savolni ham qo'ya olishi kerak.

A. Jabborning ijtimoiy tarmoqlardagi axborotni tushunishda psixosemantik yondashuvga bag'ishlangan tadqiqotida mediaaxborotning shaxs tomonidan mazmunli talqin qilinishi va uning psixikaga ta'siri masalalari yoritilgan ^[3]. Ushbu yondashuv mediasavodxonlik bilan tanqidiy fikrlash o'rtasidagi aloqani tushunishda



muhimdir. Chunki shaxs mediaxabar mazmunini nafaqat qabul qiladi, balki unga ma'lum subyektiv ma'no ham beradi. Agar talaba o'zining subyektiv talqinini xabarning obyektiv mazmuni bilan aynanlashtirib yuborsa, tanqidiy baholash imkoniyati kamayadi. Aksincha, "men qanday tushundim?" va "xabarda aslida nima aytilgan?" o'rtasidagi farqni anglash mediasavodxonlikning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Psixosemantik jihatdan qaralganda, mediaaxborotning ta'siri ko'pincha xabardagi so'zlar, baholovchi ifodalar, ramzlar va kontekst orqali yuzaga keladi. Bir voqeaning "muammo", "inqiroz", "xavf" yoki "o'zgarish" kabi turli so'zlar bilan berilishi foydalanuvchining uni idrok etishiga turlicha ta'sir qilishi mumkin. Tanqidiy fikrlash talabaga bunday til vositalarining xabarning mazmuniy yo'nalishini qanday shakllantirayotganini anglash imkonini beradi. Shu sababli mediasavodxonlikning yuqori darajasida shaxs nafaqat faktlarni, balki faktlarning qanday ifodalanganini ham tahlil qiladi.

Mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi munosabatni tushuntirishda kognitiv uslublar ham muhim o'rin tutadi. A. M. Jabbor ijtimoiy tarmoqlardagi axborotni konstruktiv tushinishda kognitiv uslublarning o'rnini tahlil qilib, shaxsning axborotni qabul qilish va qayta ishlashdagi individual kognitiv xususiyatlari uning mazmunni anglashiga bevosita ta'sir qilishini ko'rsatadi [4]. Bu fikr mediasavodxonlikka ham tatbiq etilishi mumkin. Chunki tanqidiy baholash faqat bilimning mavjudligiga emas, balki shaxsning axborotni qay tarzda tashkil etishi va qarama-qarshi ma'lumotlarni qanchalik moslashuvchan qayta ishlashiga ham bog'liq. Kognitiv moslashuvchanlik tanqidiy fikrlashning muhim shartlaridan biridir. Talaba yangi va ishonchli dalilga duch kelganida avvalgi fikrini qayta ko'rib chiqishi, o'z pozitsiyasiga zid ma'lumotni ham tahlil qilishga tayyor bo'lishi kerak. Aks holda, tanqidiy fikrlash tashqi ko'rinishda faqat o'z fikrini himoya qilish vositasiga aylanib qolishi mumkin. Haqiqiy tanqidiylik esa shaxsning o'z xulosasini ham baholash obyekti sifatida ko'ra olishida namoyon bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlikni o'rganish maqsadida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ilmiy adabiyotlar asosida mediasavodxonlikning kognitiv, refleksiv va psixosemantik jihatlari hamda tanqidiy fikrlashning axborotni baholash, fakt va talqinni farqlash, manbalarni tekshirish va mustaqil xulosa chiqarish jarayonlari bilan aloqasi tahlil qilindi. Shuningdek, refleksiya, kognitiv moslashuvchanlik va metakognitiv nazorat mazkur bog'liqlikni ta'minlovchi muhim psixologik omillar sifatida ko'rib chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlashning o'zaro bog'liqligi axborotdagi fakt va fikrni ajratish jarayonida ham namoyon bo'ladi. Media materiallarida obyektiv faktlar ko'pincha muallifning bahosi, sharhi yoki taxmini bilan birga beriladi. Tanqidiy fikrlash yetarlicha shakllanmagan talaba muallifning talqinini fakt sifatida qabul qilishi mumkin. Mediasavodxon talaba esa "nima sodir bo'lgan?" bilan "muallif sodir bo'lgan voqeani qanday baholamoqda?" degan ikki masalani alohida ko'rib chiqadi. Bu ko'nikma media manipulyatsiyalarini aniqlash uchun ham zarurdir. Axborotning ayrim jihatlari alohida ta'kidlash, boshqa qismlarini e'tibordan chetda qoldirish, statistik ma'lumotni kontekstsiz berish yoki hissiy so'zlardan foydalanish xabarning umumiy taassurotni o'zgartirishi mumkin. Mediasavodxonlikning tanqidiy komponenti ana shunday kommunikativ usullarni aniqlash va ularning xulosaga ta'sirini baholashda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy tarmoqlarda soxta va chalg'ituvchi axborotni aniqlash masalasi ham ushbu ikki sifat o'rtasidagi bog'liqlikni yaqqol ko'rsatadi. 2025-yilda universitet talabalari ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotda media savodxonligi va tanqidiy fikrlash darajasi yuqoriroq bo'lgan talabalar haqiqiy va soxta xabarlarini aniqroq farqlaganligi qayd etilgan. Natijalar mediasavodxonlik, tanqidiy fikrlash va axborotni tekshirishga bo'lgan epistemik qiziqishning birgalikda ishlashini ko'rsatadi. Bu holat talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish mediasavodxonlikni oshirishning amaliy yo'llaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Shaxsga faqat soxta axborot belgilari ro'yxatini yodlatish yetarli emas. Chunki manipulyativ kontent shakllari vaqt o'tishi bilan o'zgaradi. Tanqidiy fikrlash esa yangi va oldindan tanish bo'lmagan axborot vaziyatlarida ham dalil, manba va mantiqni baholash imkonini beradigan nisbatan universal psixologik resursdir.

Mediasavodxonlikni shakllantirish tanqidiy fikrlashning o'ziga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Talaba turli media manbalarini muntazam solishtirsa, qarama-qarshi pozitsiyalarni o'rgansa va o'z xulosasini dalillar bilan asoslashga majbur bo'lsa, tahliliy fikrlash faoliyati muntazam mashq qilinadi. Bu jarayon tanqidiy fikrlashning faqat media muhitida emas, balki o'quv va ilmiy faoliyatda ham namoyon bo'lishiga xizmat qilishi mumkin.

Universitet talabalari bo'yicha mavjud empirik natijalar bu munosabatning murakkab ekanligini ko'rsatadi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning o'zi tanqidiy fikrlashning avtomatik ravishda rivojlanishiga olib kelmaydi. Aksincha, foydalanishning mazmuni va usuli muhimdir. 2024-yilda chop etilgan bir tadqiqotda ijtimoiy media foydalanishi va tanqidiy fikrlash ko'rsatkichlari o'rtasida ijobiy aloqalar qayd etilgan bo'lsa-da, ijtimoiy tarmoqqa



qaramlik tanqidiy fikrlash bilan salbiy bog'liq bo'lishi aniqlangan. Bu natija raqamli muhitni "foydali" yoki "zararli" deb bir tomonlama baholash to'g'ri emasligini ko'rsatadi.

Shunday ekan, mediasavodxonlikning asosiy masalasi talabani ijtimoiy tarmoqdan foydalanishi yoki foydalanmasligi emas, balki undan qanday foydalanishidir. Axborotni o'rganish, qo'shimcha manba izlash, professional munozaralarda qatnashish va turli nuqtayi nazarlarni solishtirish tanqidiy fikrlashga ijobiy sharoit yaratishi mumkin. Maqsadsiz va nazoratsiz kontent iste'moli esa yuzaki axborot qayta ishlash odatini kuchaytirishi ehtimoli mavjud.

Tanqidiy o'qish ham mediasavodxonlikning muhim ko'rinishlaridan biridir. Talaba matnni o'qishda faqat ma'lumotni eslab qolmasdan, argumentning qanday tuzilganini, xulosa qaysi dalillarga tayanganini va muallifning nuqtayi nafari qanchalik asoslanganini baholashi lozim. 2024-yilgi universitet talabalari tadqiqotida tanqidiy fikrlash qobiliyati tanqidiy o'qish ko'nikmalari bilan sezilarli bog'liq bo'lib, ijtimoiy media foydalanishi va tanqidiy fikrlash birgalikda tanqidiy o'qish jarayoniga hissa qo'shishi qayd etilgan.

Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlashni birgalikda rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida real media materiallaridan foydalanish samarali bo'lishi mumkin. Masalan, bir voqea haqida ikki yoki uchta turli manbadagi xabarni qiyoslash, qaysi ma'lumotlar fakt ekanini belgilash, manbalar orasidagi mazmuniy farqlarni aniqlash va mualliflarning kommunikativ maqsadini tahlil qilish talabani bir vaqtning o'zida mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini faollashtiradi.

Bunday mashg'ulotlarda tayyor javobni aytib berishdan ko'ra, talabani o'z xulosasiga qanday kelganini asoslatish muhimroqdir. "Nima uchun bu manbani ishonchli deb hisobladingiz?", "Qaysi dalil sizning fikringizni o'zgartirdi?", "Qarama-qarshi pozitsiyaning kuchli tomoni nimada?" kabi savollar talabani refleksiv va argumentativ fikrlashini kuchaytiradi.

Mediaxabarlarni faktcheking qilish ham tanqidiy fikrlashni amaliy shaklda rivojlantiradi. Talaba birlamchi manbani topish, sana va kontekstni aniqlash, tasvir yoki iqtibosning asl manbasini tekshirish va turli manbalardagi ma'lumotlarni solishtirish orqali axborotni baholashning aniq algoritmini o'zlashtiradi. Bu jarayonda tanqidiy fikrlash mavhum nazariy tushuncha bo'lib qolmay, kundalik mediaxulqning real qismiga aylanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Talabalarda mediasavodxonlik va tanqidiy fikrlash o'rtasidagi psixologik bog'liqlik mediaaxborotni qabul qilish, tushunish, baholash va undan foydalanish jarayonlarida namoyon bo'ladi. Mediasavodxonlik talabani axborot bilan ishlash ko'nikmalarini ifodalasa, tanqidiy fikrlash ushbu faoliyatning mazmuniy va nazorat qiluvchi asosini tashkil etadi. Axborot manbasini tekshirish, fakt va talqinni farqlash, qarama-qarshi dalillarni solishtirish va asoslangan xulosa chiqarish ikkala hodisani bog'lab turuvchi asosiy psixologik operatsiyalar hisoblanadi.

Mediaaxborotning psixosemantik xususiyati shuni ko'rsatadiki, talaba xabarga faqat obyektiv mazmun sifatida emas, balki shaxsiy tajriba va mavjud qarashlari orqali ma'no beradi. Tanqidiy fikrlash ushbu subyektiv talqinni anglash va zarurat tug'ilganda qayta ko'rib chiqish imkonini yaratadi. Bu jihatdan refleksiya va meta-kognitiv nazorat mediasavodxonlik bilan tanqidiy fikrlash o'rtasidagi eng muhim ichki mexanizmlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Potter W.J. Media Literacy. - Thousand Oaks, CA: SAGE Publications, 2019.
2. Hobbs R. Digital and Media Literacy: Connecting Culture and Classroom. - Thousand Oaks, CA: Corwin, 2011.
3. Jabbor A. Ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni tushunishda psixosemantik yondashuvning o'ziga xos talqini // O'zMU Xabarlari. - 2024. - № 1/1.6. - B. 74-76.
4. Jabbor A.M. Ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlarni konstruktiv tushunishda kognitiv uslublarning o'rni // Inter Education & Global Study. - 2025. - Vol. 3. - № 5(1). - B. 451-456.
5. Galindo-Domínguez H., Bezanilla M.J., Campo L. Relationship between social media use and critical thinking in university students // Education and Information Technologies. - 2025. - Vol. 30. - P. 6641-6665.
6. Shieh C.-J., Nasongkhla J. Effects of motivation to use social networking sites on students' media literacy and critical thinking // Online Journal of Communication and Media Technologies. - 2024. - Vol. 14. - № 1. - e202404.
7. Cheng L., Fang G., Zhang X., Lv Y., Liu L. Impact of social media use on critical thinking ability of university students // Library Hi Tech. - 2024. - Vol. 42. - № 2. - P. 642-669.
8. Amelia D., Suryaman M., Sudiati S. The relationship between social media use and critical thinking ability on critical reading skills among university students // Jurnal Penelitian Ilmu Pendidikan. - 2024. - Vol. 17. - № 1. - P. 13-22.
9. Nerantzaki K., Meladianos P. Detecting fake news on social media among students: The role of curiosity, critical thinking, and media literacy // European Journal of Contemporary Education and E-Learning. - 2025. - Vol. 3. - № 6. - P. 151-165.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №9(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.